

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**JIZZAX VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

**“FAN VA TA’LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY
TAJRIBALARDAN FOYDALANISH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

MATERIALLARI



JIZZAX-2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**JIZZAX VILOYATI XALQ TA’LIMI
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH HUDUDiy MARKAZI**

**“FAN VA TA’LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN
FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi
(2021-yil, 14-iyun)
MATERIALLARI**

**“USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN INCREASING THE
CONTENT OF SCIENCE AND EDUCATION: PROBLEMS
AND SOLUTIONS”**

**Republican scientific and practical online conference
(June 14, 2021 y)
MATERIALS**

**«ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В
ПОВЫШЕНИИ СОДЕРЖАНИЯ НАУКИ И
ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»**

**Республиканская научно-практическая онлайн-конференция
(Июнь 14, 2021 г)
МАТЕРИАЛЫ**

JIZZAX – 2021

ko'zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashdagi asosiy talablardan biri ularni boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodga oid bilim va tushunchalarni taqdim etish bo'yicha bilim, mahorat va metodika bilan qurollantirish, iqtisodiy fikrlashga o'rgatishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bir emas, bir necha o'quv fani bo'yicha o'quvchilarga to'rt yil davomida bilim beradi. Shuning uchun iqtisodga oid tushunchalarni mazkur o'quv fanlari tarkibiga singdirish, ya'ni, integratsiyalashgan tarzda taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsiyalashgan darslar mazmunini ishlab chiqish, integratsiyalashgan o'quv materiallarini taqdim etishning ma'qul shakl, metod va vositalarini tanlay olish, integratsiyalashgan darslarni didaktik jihozlashga o'rgatish lozim.

Oilada bolalarni yoshligidanoq oilaning iqtisodiy masalalarni hal qilishga jalb yetish birinchidan, bolaning ota-ona oldidagi qadrini oshiradi, bolaning o'ziga ishonchini kuchaytiradi, ikkinchidan, pul sarflash madaniyatiga hisob-kitobga, tejamkorlikka o'rgatadi. Oila xo'jaligining iqtisodiy masalalari demokratik asosda, hamma oila a'zolari ishtirokida o'tadigan oilalarda pul-mablag' sababli janjallar ro'y bermaydi, balki oila a'zolarini oila jamoasiga yanada jipslashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A.Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur.-T.:M Ma'naviyat,1999.-B.104
2. Abdullaev R.A. va boshqalar. Iqtisodiy axborotlarni EHMda ishlashini avtomatlashtirish. – T. O'qituvchi, 1990. –B. 98 .
3. Valieva Z.A., Muxiboev Yo.U. Iqtisod alifbosi.-T.;Sharq, 1997.-B.96.
4. Davletshin M.G. Boshlang'ich ta'limning psixologik omillari. Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. – T. TDPU, 1996. –B. 134 .
5. Sarsenbaeva R.M., Oilada iqtisodiy ta'lim-tarbiyani shakllantirish yo'llari. "Zamonaviy ta'lim" jurnali. 81-88-bet .-T. 2017 .5-son.
6. Sasova I.A., Amend A.F. Mehnat jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish. - M. Prosveteniye, 1988. –B. 192.

O'QUVCHILARDA IJTIMOY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

*Umirova Nurjamal Jarkurganovna
Yuqori Chirchiq tumani 12-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktab direktori*

O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish murakkab, ko'p qirrali ko'rinishga ega bo'lib, ijtimoiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari, ustuvor jihatlari va uni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni alohida-alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik muammo sifatida o'rganishda, ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv omillarini ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Eng avvalo, "ijtimoiylashuv" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasida: "ijtimoiy moslashuv" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "ijtimoiy moslashuv - individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni,

odatda, individning o‘z faoliyatini va o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o‘zgartirish davrlari bilann bog‘laydilar”.

Pedagogika fanlari doktori, professor N.M.Egamberdiyeva, mazkur tushunchaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bulgan ob‘ektiv ehtiyoji jarayonida paydo buladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bolada boshqa bir ob‘ektiv ehtiyoj — o‘ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro‘y beradi”.

Z.T.Saliyeva esa, mazkur tushunchaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Ijtimoiylashuv bolalar, o‘smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ko‘p sonli shart-sharoitlar bilan o‘zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta’sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi”. Har qanday ijtimoiy muhit shaxs shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi mumkin.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, shaxsning ijtimoiylashuv jarayonlariga keng shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oyaning natijasidir. Aholimiz, ayniqsa yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharaflil vazifa hisoblanadi. Chunki ijtimoiy faollik, sadoqat, fidoiylik, axloq va tashabbuskorlik dastlab oilada boshlanib, ijtimoiy institutlar orqali shakllantirilib, shaxsning hamda davlat va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligi asosida yuksaltiriladi. Ushbu g‘oyaning maqsadi ham ongi, tafakkuri, bilimi yuksak, xulq-atvori ibratli hamda madaniyatli va e’tiqodi mustahkam, o‘ziga – oilasiga – Vataniga sodiq erkin shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va ularning manfaatlarini har tomonlama huquqiy himoya qilishga alohida e’tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar ro‘yobga chiqarilmoqda. Davlatimiz rahbari: “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”, deb alohida qayd etdi. Shu bois, so‘nggi yillarda tub islohotlar amalga oshirilayotgan mamlakatimizda “.....mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash” ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “.....yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz” – degan fikrlari o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy faollik alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy faollik - ijtimoiy sub’ektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan xuquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishi.

Demak, ijtimoiy faollik bu insonning ijtimoiy tajribasi, bilim va ko‘nikmalari to‘laligicha namoyon bo‘ladigan jarayon. Inson o‘z manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qay darajada qobil, ayni vaqtda, jamiyat manfaatlarini taminlashga qanchalik samarali hissa qo‘sha oladi, degan savollarga javob ko‘p jihatdan uning ichki ma’naviyati, e’tiqodi va ijtimoiy faolligiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2019-yil 3-maydagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” PQ-4307-son qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagogning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan nutqi”, 2019-yil 23-avgust.

-
3. Xudoyqulov X.J, Kenjaboyev A.E. Pedagogik modul o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. – T., 2018.
 4. Raxmanova M. Q. Individual o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning faolligini rivojlantirish // Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio' 2023 y.№6/3 246-252
 5. Raxmanova M. Q Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi // Uzlursiz ta'lim 2023 y.Maxsus soni 41-46
 5. Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.
 6. Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dokd... diss. – T., 2023. – 220 b.
 7. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'. 2022. –№3/3, – B. 39-43.
 8. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / “Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.
 9. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / “Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

116	O'quvchilarning iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini ta'lim klasterida ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari <i>Saparova Umida Baxromovna</i>	330
117	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini oila hamkorligida shakllantirishning o'ziga xos jihatlari <i>Saparova Umida Baxromovna</i>	332
118	O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari <i>Umirova Nurjamal Jarkurganovna</i>	336